

NAVOIY “DEVON”INING KOMIL XORAZMIY NASHR QILDIRGAN TOSHBOSMA NUSXASI

1 kurs magistranti

Xaitov Yodgor

Komil — shoir, xattot, bastakor, musiqashunos, tarjimon, davlat arbobi. Uning ibratli faoliyati zamondoshlari va keyingi davr ilm ahlining e’tirofiga sazovor bo‘lgan. Ko‘plab tadqiqotchilar bu ulkan ijodkor va siyosatdon faoliyatiga qiziqish bilan qaraganlar. Komil xattotlik bilan ham muntazam shug‘ullandi. Qo‘lyozmalarni ko‘chirish, kitob tayyorlash ishlarida faol qatnashdi. Ustoz Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrkon devon, Muhammad Sharif arro devon, Matyoqub Xarrot devon kabi shogirdlar yetkazdi. Uning o‘g‘li Muhammad Rasul ham yaxshigina xattot edi. «Mirzo» taxallusi bilan she’rlar yozgan, devon tuzgan shoir edi.

Komil Xorazmiy noshir sifatida ham faoliyat olib borgan. Sharq qo‘lyozmalari fondida noshiri Komil Xorazmiy ekanligi qayd etilgan bir nechta toshbosma kitoblar mavjud. Shuningdek, Komil Xorazmiy Navoiy devonlarini ham nashr qilgan ekan. Masalan, 18 ashyo raqami ostida saqlanayotgan toshbosma Navoiy devonini o‘z ichiga oladi. Manbaning birinchi varag‘ida uch unvon mavjud. O‘rtada joylashgan unvonga kitob nomi quyidagicha berilgan:

ديوان حضرت نوائى عليه ارحمه مسمى بغرايب الصغر دفتر الاول¹

“Divāni hazrat Navāiy ‘alayhi rahmahu musammi biġarāib us-siġar”

Nomidan ma’lum bo‘lishicha ushbu toshbosmada to‘rt devon tarkibiga kiruvchi “G‘aroyib us-sigar” devoni aks etgan. Девон ғазаллар, мусаддас, мухаммас, таржибанд, маснавий, мусамман, мухаммас, муаммо ва рубоийлардан иборат. Devon hijriy 1299 melodiy 1881 yilda nashr qilingan.

¹ O‘zRFA Sharqshunoslik institute fondida saqlanuvchi 18 ashyo raqami ostida saqlanuvchi toshbosma manba. Bundan keyingi misollar ushbu manbadan olindi.

Nahr joyi “خيوق دار الخلافة” deya ko’rsatilgan; manba 225 betdan iborat. Har bir varaq tagiga poygirlar qo’yilgan. Manba 25x16 cm o’lchamda.

Toshbosma matnini qiyosan o’rganish uchun “G’aroyib us-sig’ar” devonining Navoiy asarlarining mukammal asarlar to’plamiga murojaat etdik. Nashrda qiyoslaganda toshbosmada bir muncha e’tiborli jihatlar ko’zga tashlandi. Masalan, “G’aroyib us-sig’ar” devonidan “Zihe husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo” deb boshlanuvchi g’azalni olaylik. Nashrda mazkur g’azal matla’si quyidagicha berilgan:

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,

Bu savdolar bila **kavnayi** bozorida yuz g’avg’o(13)².

Komil Xorazmiy nashr qildirgan toshbosmada bu matla’ quyidagicha berilgan:

زهی حسنونک ظهوریدین توشوب هر کیمکا بیر سودا

بو سودالار بيله کونین بازاریدا یوز غوغا

Zihi husnuṅ zuhurīdīn tūšūp har kimgā bir savdā,

Bu savdālar bilā **kavnayn** bāzārīda yūz ḡavḡā

E’tibor bilan qaralsa nashrda “kavnayi” so’zi manbada “kavnayn” deb berilgan. Bizningcha, toshbosma manbada berilgan so’z to’g’ri. Chunki, “kavnayn” so’zi arab tilidan o’zlashgan bo’lib, “ikki dunyo” tushunchasini anglatadi. Mazkur ma’no bayt mazmunida ham g’alizlik paydo qilmaydi. Ya’ni, ma’shuqa husnining savdosi ikki olam bozoriga g’avg’olar keltiradi. Nashrda keltirilgan “kavnayi” so’zining ma’nosini qidirib Navoiy asarli tilining izohli lug’atiga murojaat etganimizda, mazkur so’zni topmadik. Yana bir misol, nashrda:

Ne ishka bo’ldi beorom ko’zgu aksidek Majnun,

Yuzi ko’zgusida aksini gar ko’rguzmadi Laylo.

Manbada:

نی ایشکا بولدی بی آرام کوزکو عکسیدین مجنون

یوزی کوزکوسیدا عکسینی کر کرکوزمادی لیلا

Ne iškā boldī beārām közgü **’aksidīn** Majnun,

² Alisher Navoiy. G’aroyib us-sig’ar. – T., - B.13. (Bundan keyingi asarlar ushbu nashrdan, ushbu betdan olingan)

Yüzi közgüsida 'aksini gar körgüzmädi Laylā.

Ushbu g'azal doirasida so'zga qo'shilgan qo'shimchalar orasida farq bor. Lekin, ana shu qo'shimchalar ma'no o'zgarishiga sabab bo'lgan. Bizning fikrimizcha manbadagi variant nashrga nisbatan to'g'riroq. Ushbu g'azal doirasida yana farqlar kuzatildi.

Nashrda:

Seni topmoq base mushkildurur, **topmaslig'** osonkim,
Erur paydoliq'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo.

Manbada:

سنی تاپماق بسی مشکلدورور تاپماسلیق اسان
ایرور پیدالیغینک پنهان ولی پنهانلیغینک پیدا

Seni tapmaq base muškuldurur, **tapmasliq** āsān,
Erür paydālīg'ın pinhān vale pinhānlīg'ın paydā

Manba va nashrda grammatik qo'shimchalar o'rtasida farq kuzatildi. Bu borada biror variantni noto'g'ri deyolmaymiz. Chunki "tapmaq" so'zidagi tovushlar yo'gon tovushlar hisoblanadi. Turkiy singarmonizm qoidalariga muvofiq mazkur so'zga faqat yo'g'on tovushlardan tashkil topgan qo'shimchalar qo'shilishi lozim. "-līg" va "-līq" qo'shimchalarining har ikkalasi ham shular jumlasidandir.

Nashrda:

Quyoshqa gah qizarmoq, gohe sarg'armoq erur andin
Ki, sun'ung bog'ida bor ul sifat yuz ming guli ra'no.

قویاشغه کی قزارماق گاه سارارماق ایرور آندین
کی صنعنک باغیدا بار اول صفت یوزینک گل رعنا

Quyaşğa gah qızarmaq, gāhe sararmaq erür āndin,
Ki, sun'un bağ'ida bor ul sifat yüz miñ gul-i ra'nā.

Yana bir misolga murojaat etamiz. Nashrda:

Навоий қайси тил бирла сенинг ҳамдинг баён **қилсун**,
Тикан жаннат гули васфин қилурда гунг эрур гўё.

Manbada:

نوائى قايسى تىل بىرلە سىنىپىك حمدىنىك بىيان ايتسون

تىكن جنت كلى وصفين قىلوردا كنىك ايرور كويا

Navāiy qaysī til birlā seniḡ hamdīḡ bayān qīlsun,

Tikān jannat gulī vasfīn qīlurda gūḡ erūr goyā.

Bu baytda ham yuqoridagi kabi hodisa mavjud: nashrda “quyoshqa” so’zi manbada “quyašğa” tarzida berilgan. Lekin, nashrda “sarg’armoq” so’zi “sararmaq” tarzida berilgan. Bunda toshbosmaning nashr jarayonida xato ketgan deya olmaymiz. Chunki. “sararmaq” so’zi “sarg’aymoq” ma’nosini ham bergan bo’lishi mumkin.

Nashr va toshbosmada yana e’tiborga loyiq farqlar uchradi. Nashrda:

Недин юз гул очар ишқ ўтидин булбул каби Вомиқ,

Вомиқ Юзингдин гар узори боғида гул очмади Азро.

Manbada:

نىدىن يوز كل آچار عشق اوتىدىن بلبل كىبى وامق

يوزونكىدىن كر عزارى باغيدا كل آچمادى عزرا

Nedin gul ačar ’išq ötidin bulbul kibi Vāmiq,

Yüzüḡdin gar ’uzārī bāḡīda gul āčmadī ’Azrā

Ahamiyat bilan qaralsa nashrda vazn buzilishi sodir bo’lgan. Lekin toshbosmada bunday holat kuzatilmaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Komil Xorazmiy ijodkor hamda davlat arbobi sifatida kunimizga qadar salmoqli meros qoldiradi. U noshir sifatida bir nechta asarlarni nashr qildiradi. Shular jumlasidan, Navoiy “Devoni” ham mavjud. Mazkur toshbosma nusxa Navoiy “Devon”i matnini tadqiq qilishda ahamiyatga molik manbalardan biridir.

NAVOIY “DEVON”INING QIYOSIY TADQIQ

(Komil Xorazmiy nashr qildirgan toshbosma hamda “G’aroyib us-sig’ar”
nashri asosida)

1 kurs magistranti

Xaitov Yodgor

O’rta Osiyoda toshbosma (litografik) usulida kitob nashr etish 1874 yildan boshlandi. Bu dastlabki toshbosma matbaa Xiva xoni Muhammad Rahimxon II saroyida tashkil etilgan edi. Toshbosma nashr uchun matn, avvaliga, eski o‘zbek yozuvida maxsus qog‘ozga qo‘lda ko‘chirilgan. Undan esa toshqolipga o‘tkazilgan. Toshqolip bilan 500-600 nusxagacha kitob bosish mumkin bo‘lgan. Toshbosma nashr asarning qo‘lyozmaga nisbatan bir necha barobar tezroq tarqalishini ta’minlagan. Toshbosma nashr uchun matn tayyorlashda xattot qo‘lyozmalarni ma’lum darajada o‘rganib, ularning ishonchlilari asosida toshbosma uchun matn tayyorlagan va muayyan matnshunoslik faoliyatini olib borgan³.

Xorazm adabiy muhitining yorqin namoyondalaridan biri – Komil Xorazmiydir. U serqirra ijodkor bo‘lib, Xivada ochilgan ilk matbaada Komil Xorazmiy noshir sifatida faoliyat olib borgan. Buni O‘Zrfa Sharqshunoslik instituti fondida mavjud bir nechta toshbosma manbalardan bilib olish mumkin. Shuningdek, Komil Xorazmiy Navoiy devonlarini ham nashr qilgan. Masalan, 18 ashyo raqami ostida saqlanayotgan toshbosma Navoiyning “G’aroyib us-sig’ar” devonini o‘z ichiga oladi.

ای صفحه رخسارینک ازل خطیدین انشا

دیباچهء حسنونکدا ابد نقطسی طغرا

³ Эркинов А. Матншуносликка кириш. – Т.: Таълим маркази, 1997. – В., 14.

Эй, **мусхафи** рухсоринг азал хаттидин иншо,
Дебочайи хуснунгда абад нуқтаси туғро.

مشاطه صنعونكدورور اولكيم نفس ايچره
كون كوزكوسين افشام كوليدين قيلدى مجالا

Машшотайи **хуснунгдур** улким, нафас ичра
Кун кўзгусин оқшом кулидин қилди мужалло.

صنعتك قليبان چرخ نى اولنوع مشعبد
كيم مهر اوتن آغزیدين ايتار هر نفس افشا
Сунъунг қилибон **субҳ**ни ул навъ мушаъбад,
Ким меҳр ўти оғзидин этар ҳар нафас ифшо.

عصيانى كوب نوايى نينك و يوق اوياتكيم
استار مو تشسه مونچه خجالت بيلان سنكا
Исёни кўп Навоийнинг у йўқ уётиким,
Истар етишса мунча хижолат билан санга.

شهاب اولسه شبستانينكدا طالع
بولوب يوزى قوياش ديك عالم ارا
Сухо бўлса шабистонингда толиъ,
Бўлуб **нури** қуёшдек оламоро.

لبلارى نكنينك كليماتى كه برور جسم غه روح
آب حيوان اوزه يوقسه تكلم يا رب
Лабларининг калимотики, берур жисмға руҳ,
Оби ҳайвон **унидур**, йўқса такаллум, ё раб.

صاف قيل خاطر كى سالغاي عكسى اول يوز نقشى كيم
كوركوزور يوزى قچانكيم روشن اولدى كوزكو حوب
Соф қил хотирки, солғай акс ул юз **яхшиким**,
Кўргузур юзни, қачонким равшан ўлди кўзгу хўб.